



Arining qasosi

Muhabbat Hamidova

I

Sardor sigirini soyaga olib, o'rtog'i O'tkir bilan daladan qaytarkan atrofi beton g'isht bilan o'ralgan paxta titish sexi yonida to'xtab qoldi.

– O'tkir, qara, anavi devorning orasida qovog'arining uyasi bor ekan. Hozir uchta ari ketma-ket kirib ketdi, – dedi g'ishtlar orasidagi ochiq joyga ishora qilib.

– E, qovog'ari juda yomon, bir marta buzog'imni chaqqanda hamma yog'i shishib ketgan. Mol do'xtiri Murod amaki uch kun ukol qilib, zo'rg'a tuzatib bergan. Arilarni yo'qotish kerak, – deya O'tkir atrofga qarab nimanidir qidirdi. Keyin asta borib, daraxt tagida yotgan uzun cho'pni oldi.

– Jinnimisan, inini buzmoqchimisan? Uning jahli yomon, dabdalamizni chiqaradi, – dedi qo'rqib ketgan Sardor.

– Buzamiz-u, qochamiz. Kim qilganini bilmay qoladi, – dedi O'tkir, yoriqqa cho'p tiqib kovlarkan. Kovladi-yu, cho'pni ham olmasdan ura qochdi. Sardor cho'pni olib tashlamoqchi bo'lgandi, ikki-uchta ari vizillab uyadan chiqdi.



Ular Sardorga e'tibor ham bermay, O'tkirni quvlashga tushdi. Qo'rqib ketgan Sardor o'rtog'ining ketidan yugurdi. Bu paytda tepasida o'ndan ortiq ari xuddi bomba tashlashga ketayotgan samolyotlarday bir safga tizilib uchardi. Qizig'i, ular Sardorga qarashmasdi ham. Arilarning o'zidan uzoqlashganini sezgach, Sardor nafasini rostdash uchun ariq chetidagi tut soyasiga o'tdi.

– Uff, xayriyat topisholmadi, – degan tanish ovozni eshitib, tepaga qaradi.

– Tavba, qanday ulgurding, yaxshiyam seni ko'rishmadi, bo'lmasa do'mbira qo'zi qilib chaqib tashlashardi.

– Meni bilasan-ku, shamoldan ham tez yuguraman, – maqtandi O'tkir. Keyin hayron bo'lib Sardorga qaradi. – Qiziq, nega ular senga tegishmadi? Yoki uyalarini sen buzmaganingni bilishdimikan-a?

– Men ham shunga hayronman. Qulog'im tagidan viz-viz uchib, osmonga ko'tarilishdi. Voy, – o'rnidan turib ketdi Sardor, – ular qaytishyapti, berkin.

O'tkir tutlarning panasiga o'tdi. Uch-to'rtta ari shundoq tepalaridan uchib o'tdi. Lekin ikkitasi tut atrofida ikki-uch bor aylandi. Sardorning naq peshonasi tepasida vizillashdi. Sardor beixtiyor qo'llari bilan yuzini to'sdi. Lekin barmoqlari orasidan ularni kuzatishda davom etdi. Arilar xuddi samolyot parvozigacha ko'tarilganda g'ildiraklarini yig'gandek oyoqlarini qattiq-qattiq silkitib yig'ib olishdi-da, uyalari tomon uchib ketishdi. Ikki o'rtoq uyga qaytarkan, O'tkir arilarni qanday chalg'itganini "ko'pirib" maqtanardi...



1. Hikoya nima haqida ekan?
2. O'tkir Sardorga qanday voqeani so'zlab berdi?
3. Sizningcha, nega qovog'arilar Sardorga e'tibor bermay, O'tkirning ortidan quvib ketdi?
4. Qovog'arilarning uchishi nimaga o'xshatilgan?
5. O'tkir arilarni qanday chalg'itdi?
6. Siz bolalarning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?



1. Hikoyadan Sardor va O'tkirning suhbatini o'qing.
2. Qovog'arining uchish holatlari tasvirlangan gaplarni topib o'qing.
3. Hikoya qahramonlariga ta'rif bering.
"Do'mbira qo'zi" iborasini izohlang.
4. Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.
5. Hikoyadagi voqealar rivojini davom ettiring.



Bilasizmi, olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, Yer yuzida hali kashf etilmagan 5 milliondan ortiq hasharot turlari mavjud. Dunyodagi eng tezkor hasharot ninachidir. Eng kuchli hasharot chumolidir, u o'zidan ko'ra bir necha baravar ulkan og'irlikni ko'tarishga qodir. Eng ochko'z hasharot cho'l chigirtkasidir.



Hikoyani o'qing va mazmunini so'zlab bering.



Topishmoqning javobini toping.

Uchib yurar vizillab,
Inin buzib bo'lmaydi.
Gar buzsang, quvib, talab,
Qasos olmay qo'ymaydi.

Siz yana qanday hasharotlarni bilasiz?



Arining qasosi

Muhabbat Hamidova

II

Ertasiga Sardor dalaga bormadi. O'tkir noiloj bir o'zi sigirini yetaklab, yaylovga yo'l oldi. Quyosh endigina tog' ortidan ko'tarilgan, hali o't-o'lanlar yuzida shudring yaltiraydi. O'tkir yuzini chala yuvganigami, uyqusi o'chmagan, yengil shabadada ham eti junjikardi. Kutilmaganda sigiri o'ynoqlab o'zini tutzorga urdi. O'tkir sigirning arqonini qo'yib yubormay, unga qo'shilib yugurdi. Sigir ariq bo'yida to'xtab, qirg'oqdagi maysalarni ochko'zlik bilan yamlashga tushdi. Shu payt O'tkir kalta shimining pochasida nimadir g'imirlaganini sezdi. Bunday qarasa, kattakon qovog'ari! Sho'rlik sovuqdanmi, shudringdanmi karaxt bo'lib qolgan, shekilli, qanotini arang sudrab tepaga o'rmalardi. O'tkir shosha-pisha uni chertib yerga tushirib yubordi. "Kecha inini buzgan